



Buxoro viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari 2025-yil yanvar-avgust


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida o'zgarishi
- III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025-yil yanvar-avgust oylarining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra (*norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvalar natijalarini hisobga olgan holda*), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **25 801,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,9 %** ga, uning hajmi esa **4 725,2** mlrd. so'mga o'sishi kuzatildi.

Ma'lumot uchun: 2024-yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar hajmi **21 076,6** mlrd. so'mni, o'sish sur'ati esa **110,2 %** ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (yanvar-avgust, mlrd. so'mda)



II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida o'zgarishi

2025-yilning yanvar-avgust oylarida bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida Buxoro shahrining ulushi **26,9 %**, ya'ni **6 947,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan ushbu shaharning o'sish sur'ati **112,2 %** ga yetgan. Shu bilan birga, eng yuqori ulush G'ijduvon (**8,3 %**), Romitan (**5,2 %**) va Peshku (**3,7 %**) tumanlarida kuzatilmoqda. Qorovulbozor tumanida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **361,2** mlrd. so'mni yoki jami xizmatlar hajmining **1,4 %** ini tashkil etdi.



Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimida asosiy ko'rsatkichlari
2025-yil yanvar-avgust

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati¹	25 801,8	100,0	111,9
<i>tumanlar:</i>			
Olot	582,2	2,3	113,9
Buxoro	863,2	3,3	114,3
Vobkent	953,2	3,7	85,9
G'ijduvon	2 147,3	8,3	109,9
Kogon	562,0	2,2	111,3
Qorako'l	801,9	3,1	113,7
Qorovulbozor	361,2	1,4	121,4
Peshku	956,2	3,7	114,3
Romitan	1 336,6	5,2	161,1
Jondor	963,5	3,7	114,6
Shofirkon	753,7	2,9	113,8
Buxoro shahri	6 947,9	26,9	112,2
Kogon shahri	705,9	2,7	116,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi

2025- yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahrini hisobga olmaganda, (yoki viloyatimiz shahar va tumanlaridan), Romitan (**161,1** %), Qorovulbozor (**121,4** %), Jondor (**114,6** %), Peshku (**114,3** %), Buxoro (**114,3** %), Olot (**113,9** %) va Shofirkon (**113,8** %) viloyatlarida kuzatildi.

2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori bo'limgan o'sishi G'ijduvon tumanida qayd etildi – **9,9** %.

2025- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **12 385,6** ming so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davri (**10 276,8** ming so'm)ga nisbatan **2 108,8** ming so'mga yoki **10,2** % ga o'sishi qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, **23 059,6** ming so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan **10,2** % ga yoki **3 632,5** ming so'mga o'sishi kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Shofirkon tumanida (**3 994,1** ming so'm) qayd etildi.

¹shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari (2025-yil yanvar-avgust)**

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	12 385,6	110,2
<i>tumanlar:</i>		
Olot	5 487,1	112,4
Buxoro	4 732,7	112,2
Vobkent	6 279,3	84,4
G'ijduvon	6 540,6	108,3
Kogon	6 482,5	109,0
Qorako'l	4 590,2	112,1
Qorovulbozor	17 704,2	119,0
Peshku	7 140,9	112,2
Romitan	8 684,9	158,8
Jondor	5 090,0	112,7
Shofirkon	3 994,1	112,6
Buxoro shahri	23 059,6	110,2
Kogon shahri	10 744,5	115,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **17 741,5** mlrd. so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **68,8 %** ini tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan **13,1 %** ga o'sish kuzatildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha Buxoro shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi 2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **643,3** mlrd. so'mga yoki **18,4 %** ga oshib, **2 983,8** mlrd. so'mga yetdi. Bu shaharda kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **42,9 %** ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, G'ijduvon (**1 785,2** mlrd. so'm), Jondor (**768,9** mlrd. so'm) va Vobkent (**752,9** mlrd. so'm) tumanlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Romitan tumanida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **725,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, Qorovulbozor (**169,7** mlrd. so'm) va Kogon (**461,6** mlrd. so'm) tumanlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi nisbatan past bo'lgan.



**Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari
2025-yil yanvar-avgust**

	Hajmi, mlrd. so'mda	Jami hajmdagi ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	17 741,5	68,8	113,1
<i>tumanlar:</i>			
Olot	466,1	80,1	112,0
Buxoro	679,8	78,7	115,7
Vobkent	752,9	79,0	117,3
G'ijduvon	1 785,2	83,1	111,1
Kogon	461,6	82,1	117,8
Qorako'l	624,2	77,8	115,3
Qorovulbozor	169,7	47,0	92,5
Peshku	721,0	75,4	117,4
Romitan	725,8	54,3	118,9
Jondor	768,9	79,8	117,7
Shofirkon	586,0	77,7	116,5
Buxoro shahri	2 983,8	42,9	118,4
Kogon shahri	515,6	73,0	120,0

III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldag'i "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-sod qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga savdo xizmatlarining **13,7** % ga (o'sishiga ta'siri **3,0** foiz bandni), transport xizmatlarining **14,6** % ga (o'sishiga ta'siri **2,5** foiz bandni), moliyaviy xizmatlarning **15,3** % ga (jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining mutlaq o'sishiga ta'siri **2,1** foiz bandni tashkil etdi), yashash va ovqatlanish xizmatlarining **7,2** % ga (o'sishiga ta'siri **1,9** foiz bandni), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining **15,8** % ga (o'sishiga ta'siri **0,5** foiz bandni), boshqa xizmatlarning **13,1** % ga (o'sishiga ta'siri **0,4** foiz bandni) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning **20,9** % ga (o'sishiga ta'siri **0,4** foiz bandni) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. O'z navbatida, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarining **15,1** % ga, ijara xizmatlarning **22,3** % ga hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq hizmatlarining **17,9** % ga o'sishi jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining **0,3** foiz bandga o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-avgust)

	Hajmi, mlrd. so'mda		O'sish sur'ati, % da
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar – jami	25 801,8	21 076,6	111,9
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	635,5	812,8	115,8
moliyaviy xizmatlar	2 944,8	3 455,0	115,3
transport xizmatlari	3 591,4	4 556,6	114,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>3 277,6</i>	<i>4 127,9</i>	<i>113,2</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	5 677,8	6 982,7	107,2
savdo xizmatlari	4 581,1	5 479,3	113,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	319,4	391,7	117,9
ta'lif sohasidagi xizmatlar	1 010,3	1 116,9	96,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	365,7	502,7	120,9
ijara xizmatlari	323,3	432,8	122,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	407,7	509,0	115,1
shaxsiy xizmatlar	395,8	512,4	112,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	115,8	151,2	119,3
boshqa xizmatlar	708,0	898,7	113,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi


2025-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **27,1 %**, savdo xizmatlari **21,2 %**, transport xizmatlari **17,7 %**, moliyaviy xizmatlar **13,4 %**, ta'lif sohasidagi xizmatlari **4,3 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa **3,1 %** ulushni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: *2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,9 %**, savdo xizmatlari **21,7 %**, transport xizmatlari **17,1 %**, moliyaviy xizmatlar **14,0 %**, ta'lif sohasidagi xizmatlari **4,8 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa **3,0 %** ulushni tashkil etgan.*

2024- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **1 304,9** mlrd. so'mga oshib, **6 982,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Yashash va ovqatlanish xizmatlarining o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, ushbu xizmatlarning ulushi **96,6 %** darajasida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan ushbu tahlil qilinayotgan davrida savdo xizmatlari hajmi **898,2** mlrd. so'mga oshib, **5 479,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari hajmining tarkibi




Savdo xizmatlarining umumiyligi hajmida chakana savdo ulushi **63,3 %** ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **24,2 %** ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiyligi hajmida **12,5 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-avgust oylarida transport xizmatlari hajmi **4 556,6** mlrd. so'mga yetdi, o'sish sur'ati esa 2024- yilning mos davriga nisbatan **114,6 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmidagi ulushi **17,7 %** darajasida qayd etildi.

Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **90,6 %**. Transport xizmatlarining umumiyligi hajmida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari **9,0 %** darajasida qayd etildi. O'z navbatida, pochta va kuryerlik xizmatlarining jami transport xizmatlari hajmidagi ulushi **0,4 %** ni tashkil etdi.


Transport xizmatlarining alohida turlari bo'yicha xizmatlar hajmi





2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **812,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Telekommunikatsiya xizmatlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida eng katta qismni egallab, **79,2 %** ni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan uning o'sish sur'ati **111,1 %** ni tashkil etgan.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi, *mlrd. so'mda*



2025-yilning yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 116,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, **74,4 %** ga yetdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**391,7** mlrd. so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulknii ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **98,9 %** darajasida qayd etildi.

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **502,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Mazkur sohadagi xizmatlar umumiy hajmining **36,8 %** ini sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar egalladi. Shifoxona muassasalari xizmatlari **31,2 %** ni, tibbiy amaliyot va stomatologiya sohasidagi xizmatlar esa **12,3 %** ni tashkil etdi.

Ijara xizmatlarining umumiy hajmidagi eng katta ulushni yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlari (**49,5 %**) egallaydi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvalr natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

Oylik xizmatlar hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlari (ro'yxat) bo'yicha statistika hisobotlari;



b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmat ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz hisobga olinadi.**

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiquvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursini qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydalı havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Tayyorlash uchun mas'ul:

Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi

Manzil: 200100, Buxoro,

S. Ayniy ko'chasi, 3

Pochta: info@buxstat.uz

Tel.: 65-223-79-41

